

**BOSH MIYA PO'STLOG'INING OLIY FAOLIYATI, UNING
BUZILISHI VA NEYROPSIXOLOGIK TEKSHIRISH USULLARI.**

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali

Yuldasheva Hilola Shokir qizi
hilolayuldasheva759@gmail.com
Mengliboyeva Nozima Ikrom qizi
nozimamengliboyeva@gmail.com
Safarov Sarvarjon Chori o'g'li
sarvarsafarov2299@gmail.com
Chashanova Shirina Ergash qizi
chashanovas@gmail.com
Alimova Feruza Shokirovna
feruzaalimova038@gmail.com

Annotatsiya: Odamning bosh miyasi uning aql-idroki, fikrlash qobiliyati, ongi kabi muhim ruhiy xususiyatlarining fiziologik asosi hisoblanadi. U tashqi va ichki muhit ta'sirini analiz-sintez qilib, ularga javob qaytaradi. Tananing barcha to'qima va organlari ish faoliyatini bir-biriga bog'lab boshqaradi, organizm bilan tashqi muhitning aloqasini ta'minlaydi. Ushbu maqolada bosh miya po'stlog'ining oliy faoliyati, uning buzilishi va neyropsixologik tekshirish usullari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Bosh miya po'stlog'i, pushta va egat, proprioretseptik sezgi, oq va kulrang modda,

Bosh miya po'stlog'ida sezish (teri va proprioretseptik sezgi), ko'rish, eshitish, xidlov, ixtiyoriy harakat va boshqa proyeksiyon zonalar -«markazlar» joylashgandir. Bu zonalarda tashqi va ichki muhitdan qabul qilingan ta'sirotlar oliy darajada analiz va sintez qilinadi va bu ta'sirotlarga organizm tomonidan tegishli javob qaytariladi. Bosh miya katta yarimsharlari po'stloq qavatining qalinligi 2,5—3,0 mm bo'ladi. Po'stloq tekis bo'lmasdan pushta va egatlardan iborat. Miya po'stlog'ining bunday tuzilishi unda nihoyatda ko'p miqdorda nerv hujayralari joylashuviga imkon beradi. Binobarin, miya po'stlog'ida 14—16 mlrd atrofida nerv hujayralari joylashgan. Qizig'i shundaki, miya po'stlog'i pushtalarining soni barcha odamda deyarli bir xil, lekin ularning tuzilishi bamisoli qo'l kafti chiziqlari singari xilma-xil bo'ladi. Agar miya po'stlog'ining pushta va egatlari yozib tekislangansa, uning umumiy sathi 1468—1670 sm² ni tashkil qiladi. Miya katta yarimsharlari peshana, chakka, tepa, ensa qismlariga bo'linadi. Bosh miya katta yarimsharlari po'stlog'i mikroskopda tekshirilganda, undagi nerv hujayralari olti qavat bo'lib joylashganligi aniqlangan. Bosh miya katta yarimsharlari po'stlog'ining turli qismlarida joylashgan nerv hujayralarining po'stloq sathi funksiyasiga ko'ra, uchta zonaga bo'linadi: sezish, harakat va assotsiativ zonalar.

Bosh miya katta yarimsharlari ikkita yarimsharlardan iborat bo'lib, bosh miyaning eng rivojlangan qismidir. Ikkita yarimshar o'zaro qadoqsimon tana yordamida birikadi. Yarimsharlarning yuzasida juda ko'p pushtalar va egatchalar bor. Miya yarimsharlari katta egatchalarining peshona, tepa, ensa va orolcha kabi bo'laqlari bor. Miya yarimsharlari muhim egatchalaridan biri Silviyev egatchasi, ikkinchisi Roland, ya'ni markaziy egatcha hisoblanadi. Miya yarimsharlari qurish, eshitish, teri, sezish, xid bilish va ta'm bilish, nuprsh eshitish, Nutq harakati va nutq—qurish analizatorlarining oxirgi nerv markazlari, markazga intiluvchi harakat nervlari markazlari joylashgan. Bosh miyaning egat va pushtalari bir vaqtda rivojlanmaydi. Bola turilgandan keyin yarimsharlarning egat va pushtalari kattalarnikiga

O'xshasada, chuqur bo'lmaydi. Bola to'tilgandan so'ng peshona bulagi kattalashadi. Bola hayoti davomida miya yarim sharlarining massasi va satxi bosh miyaga nisbatan o'zgarib boradi. Bosh miya katta yarim sharlarining vazni odam bosh miyasi vazning 78 — 80% tashkil qiladi. U ikki qavatdan iborat: 1) kulrang moddadan tashkil topgan tashqi po'stloq qavat; 2) oq moddadan tashkil topgan ichki qavat. Bosh miya katta yarimsharlarining normal shakllanishida moddalar almashinuvining ahamiyati katta. Umuman olganda biz moddalar, o'zga jismlar organizmning o'z moddalariga aylanadigan jarayonlarni organizmning assimilyativ energiya iste'mol qiluvchi (anabolik) jarayonlar deb ataymiz. O'simliklarda assimilyatsiya (fotosintez) quyosh nurini singdirib olishni o'z ichiga oladi, uning yordamida energetik past anorganik moddalar energiyaga boy organik moddalarga aylanadi (avtotrof organizmlar).

Nerv sistemasi organizmni doimo o'zgarib turuvchi tashqi muhitga moslashtirib turadi. Tashqi va ichki muhit ta'sirotlari nerv sistemasining analizatorlar deb ataluvchi o'ziga xos tuzilmalari orqali qabul qilinadi.

Analizatorlarning tuzilishi. Xar bir analizator uch qismdan iborat:

1. Retseptor qismi — analizatorning organlari, teri va shilliq pardalarda joylashgan periferik qismidir.
2. O'tkazgich qismi. Xar bir analizatorning o'tkazgich kismi nervlardan va o'tkazuvchi sistemadan iborat bo'lib, impulsni retseptorlardan markazga yetkazib beradi.
3. Markaziy po'stloq qismi. Xar bir analizatorning po'stloq qismi bosh miya po'stlog'ining alohida sohalarida joylashgan.

Umuman, bosh miya po'stlog'i analizatorlar kompleksidan iboratdir. Bosh miya po'stlog'ida xar hil tashqi va ichki ta'sirotlarni qabul qiluvchi retseptorlarning o'ziga xos analizator zonolari joylashgan. Masalan, ko'z va quloqdagi retseptorlarda paydo bo'lgan ko'zg'alishlarni bosh miya po'stlog'idagi o'ziga xos zonalar qabul qiladi. Bosh miya katta yarimsharlarining po'stloq qismi odam oliy nerv faoliyatining fiziologik asosi hisoblanadi. Odanning fikrlashi, ongi, o'zlashtirishi, eslab qolishi, boshqalar bilan muomala qilishi, madaniyati, bilim olishi, hunar o'rganishi, murakkab harakatlarni bajarishi miya po'stlog'ining faoliyatidir. Miya po'stlog'ining turli qismlarida har xil funksiyalarni boshqaruvchi nerv markazlari joylashgan. Chunonchi, po'stloqning ensa qismida ko'rish, chakka qismida eshitish, peshana qismining ostki ichkari sohasida hid bilish, tepa qismidagi oldingi markaziy pushtasida harakat, orqa markaziy pushtasida tana terisining sezgi markazlari joylashgan.

Shu bilan birga, miya yarimsharlari po'stlog'i bir butun sifatida faoliyat yuritib, nozik ma'lumotlarni qayta ishlashni amalga oshiradi, vosita buyruqlarini shakllantiradi. Miya yarim sharlar po'stlog'i insonning ichki va atrof-muhit (tashqi) muhitning o'zgaruvchan sharoitlariga individual moslashishini ta'minlaydi. Doimiy o'zgaruvchan muhitga moslashuvchanligi tufayli inson tanasi o'zining hayotiyligi va hayotiyiligini saqlab qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.E. Xudoyberdiyev, N.K. Ahmedov, H.Z.Zohidov, R.A.Alavi, C.A.Asomov- Odam anatomiyasi. Toshkent 1993. 498-619 betlar.
2. F.N. Bahodirov-Odam anatomiyasi. Toshkent "O'zbekiston" 2006 betlar
3. N.Ahmedova, Z.Sodiqova-Normal Anatomiya va fiziologiyasi. Toshkent 2008. 281-328 betlar
4. Привес М. Г., Лысенков Н. К., Бушкович В. И. Анатомия человека. — 11-е изд. — СПб.: Гиппократ, 1998. — С. 525-530. — 704 с. — 5000 экз. — ISBN 5- 8232-0192-3.vv